

“ALPOMISH” DOSTONIDAGI OBROZLARNING BADIY TAHLILI

Q. Barchinoy

Urganch Ranch Texnologiya Universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek xalqining mashhur dostoni hisoblangan "Alpomish eposining obrozlar tizimi va badiiy talqinlarini oydinlashtiradi.

Kalit so'zlar: Doston , tarbiyaviylik , xalq eposi .

O'zbek xalq og'zaki ijodining eng qadimiy va ulkan yodgorliklaridan biri bu — “Alpomish dostoni”dir. Ushbu doston asrlar davomida xalqimizning orzu-umidlari, vatanparvarlik tuyg'usi, yovuzlikka qarshi kurash va milliy g'ururini ifodalagan. U nafaqat o'zbek xalqiga, balki turkiy xalqlarning umumiy kuylangan. “Alpomish” dastlab turkiy xalqlar orasida shakllangan qadimiy qahramonlik eposlaridan biridir. Asrlar davomida baxshilar uni og'zaki ijro qilib, avloddan-avlodga yetkazganlar. Shu sababdan dostonning ko'plab variantlari mavjud bo'lib, ular o'zbek, qoraqalpoq, qozoq va boshqa turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan. Bundan ming yillar avval xalq baxshilari tomonidan og'zaki ravishda yaratilgan hamda bizgacha kuylab kelingan bu doston o'zbek-qo'ng'iroq urug'i boshliqlari aka-uka Boybo'ri va Boysarilarning farzandsizligi tasviri bilan boshlanadi. Unda Hakimbek va Barchinning ajoyibg'aroyib holatlarda tug'ilishi, Hakimbekning bahodirona yoshligi va birinchi bor pahlavonlik ko'rsatishi, Boysarining Boybo'ridan arazlab, qalmoq eliga ko'chishi, qahramonning yorini olib kelish uchun o'zga mamlakatga safari va qalmoq alpi Qorajon bilan do'stlashishi, raqiblari – qalmoq alplari bilan yonmayon turib, Barchinning shartlarini bajarishi va Barchinni olib o'z eliga qaytishi, qaynatasi Boysarini qutqarish uchun ikkinchi marta safar qilganda, yetti yil zindonda qolishi, asirlikdan oti Boychibor yordamida qutulib, xotini Barchinning zo'ravon Ultontoz bilan bo'layotgan to'yi ustida o'z eliga kelishi hamda Ultontozni engib, o'z hokimiyatini o'rnatishi voqealari tasvirlanadi. «Alpomish» dostonining bosh qahramoni Hakimbek – Alpomishdir. U xalqning qahramonlik orzularini o'zida mujassamlashtirgan, el-yurt farovonligi yo'lida mardliklar ko'rsata olgan bahodir, xalq dahosi yaratgan quyma obrazdir. Qadimgi davrlar va o'rta asrlarda inson beqiyos kuch-qudrat egasi hisoblangan, chunki o'sha sharoitda odamlarning ijtimoiy hayoti va tabiat hodisalariga qarshi kurashlarida jismoniy kuch hal qiluvchi rol o'ynagan. Shuning uchun ham barcha xalqlarning qahramonlik eposlarida har ishga qodir pahlavonlar, yakkama-yakka olishuvlarda g'olib chiqqan bahodirlar, vahimali ajdar va devlarni mahv eta oladigan botirlar, tishtirnog'igacha qurollangan lak-lak dushman qo'shinini yolg'iz o'zi enggan alplar siymolari yaratilgan. Alpomish xuddi shunday qahramondir. U yetti yoshida bobosi Alpinbiydan qolgan o'n to'rt botmonlik sari yoydan otib, Asqar tog'ining cho'qqisini uchirib yuborganligi uchun ham alp ataladi. Yakkama-yakka olishuvda Qultoy va

Qorajondan g'olib chiqadi. Uning kuch-qudrati Barchin shartlarini bajarishda, qalmoq alplari bilan kurashda, ayniqsa, yorqin namoyon bo'ladi. Asar davomiyligida Alpomish ideal inson qiyofalanadi. Alpomishdan keyingi òrinda turuvchi Barchinoy obrozidir . Bu obrozning sadoqati, gòzalligi borasida hech bir parivash teng kelmaydi. Barchinoy mard va dovyurak qiz. U xalq og'zaki ijodidagi qahramonlik eposiga xos botir (alp) qiz haqidagi an'anaviy obraz hisoblanadi. Turkiy xalqlar Barchin obrazi orqali xotin-qizlarga o'z samimiy munosabatlari, katta e'zoz va hurmatlarini bildirganlar, asllar ham yuksak insoniy qudrat va shon-sharafga ega ekanligini kuylaganlar. Ba'zi tarixiy rivoyatlarda Barchin o'g'uz qabilalariga beklik qilgan ayol, deb ta'riflanadi . Òzbek eposida har tomonlama mukammal obroz desak yanglishmagan bòlamiz. Dostonda òzbek xalqining qanday yashashidan tortib urf-odatlar haqida ham habar beruvchi noyob epos. Folklorshunos J. Eshonqulov "Alpomish" dostoni haqida shunday degan: " Ta'bir joiz bòlsa, xalqimizning kòhna marosimlar, urf-odatlar, irim-sirimlar, tabrlarning "qomusi" deb atash mumkin.Chunki hech bir eposda xalqmizning maishiy hayoti bunchalik keng kòlamda badiiy ifodasini topmagan".Xulosa qilib aytganda, doston qadimiy epos bòlgani bilan eng qimmatli manbalarni va badiiy unsurlarni òzida mujassamlagan. Unda qòllangan har bir detal òz mazmun mohiyatiga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alpomish. 2- jild Berdi baxshi- T : G. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashryotining manbaa ijodiy uyi. 2013. -B 165
2. H.Zaripov Fozillar fazilati .1969
3. Òzbek xalq o'g'zaki poetik ijodi (X. Razzoqov, T. Mirzaev, O. Sobirov , X . Ismomov). T:" Òqtuvchi" nashryot , 1980